Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

01 October – 14 November 2026

UDK 336

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH ORQALI AHOLINING MOLIYAVIY HUQUQLARINI TA’MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xursanbek Maxmudovich Maxkamov*

Qo‘qon universiteti Andijon filiali, Iqtisodiyot va moliya kafedrasi o‘qituvchisi

✉ maxkamov19701208@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish va ularning aholining moliyaviy huquqlarini ta’minlash bilan o‘zaro bog‘liqligi tadqiq etilgan. Muammoli qarzdorlik nafaqat banklar uchun kredit riskining manbai, balki qarz oluvchilarning moliyaviy imkoniyatlarini cheklashi va bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini pasaytirishi mumkin bo‘lgan omil sifatida ko‘rib chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma’lumotlari asosida muammoli kreditlar dinamikasi tahlil qilingan. Qarzdorlikni asosan kechiktirilganidan keyin undirishga qaratilgan yondashuvdan kredit risklarini erta aniqlash, qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish, qarz oluvchilar bilan individual ishlash hamda kredit portfelini raqamli monitoring qilish tizimiga o‘tish zarurligi asoslangan.

Kalit so‘zlar

muammoli kreditlar, NPL, bank sektori, moliyaviy huquqlar, qarz oluvchilar, kredit riski, restrukturizatsiya, moliyaviy foydalanish imkoniyati, raqamli monitoring, kreditlarni boshqarish.

DOI: 10.5281/zenodo.23499105

KIRISH

Zamonaviy bank tizimida kredit munosabatlari aholining iqtisodiy faolligini moliyalashtirish, uy-joy sotib olish, ta’lim olish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash va iste’mol ehtiyojlarini qondirishning muhim moliyaviy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, kredit munosabatlarining kengayishi qarz oluvchilarning o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muammoli kreditlar masalasini ham dolzarb qilib qo‘yadi. Muammoli kreditlarning ortishi banklarning aktivlari sifati, likvidligi va kapital yetarliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi bilan birga, kredit oluvchilarning moliyaviy holatiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Muammoli kreditlarni boshqarish masalasiga faqat bankning moliyaviy yo‘qotishlarini kamaytirish nuqtayi nazaridan yondashish yetarli emas. Chunki kredit shartnomasi ikki tomonlama iqtisodiy munosabat bo‘lib, unda bankning kredit mablag‘larini qaytarish manfaatlari bilan bir qatorda, qarz oluvchining kredit shartlari, majburiyatlari, to‘lov jadvali va qarzdorlikni qayta ko‘rib chiqish imkoniyatlari to‘g‘risida yetarli va tushunarli axborotga ega bo‘lishi ham muhimdir. Jahon bankining moliyaviy iste’molchilarni himoya qilish bo‘yicha tavsiyalarida kredit mahsulotlari bilan bog‘liq munosabatlarda shaffoflik, axborotni oshkor qilish, mas’uliyatli kreditlash, iste’molchilar bilan ishlash va nizolarni hal etish mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilgan [1].

O‘zbekiston bank tizimida ham muammoli kreditlar hajmi va ulushini muntazam monitoring qilish

muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Markaziy bankning ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-yanvar holatida tijorat banklarining jami kreditlari 533 121 mlrd so‘mni, muammoli kreditlar 21 185 mlrd so‘mni va NPL ulushi 4,0 foizni tashkil etgan [2]. 2025-yil 1-iyun holatiga jami kreditlar 567 685 mlrd so‘mga yetgan bo‘lsa-da, NPL 23 520 mlrd so‘m va uning ulushi 4,1 foizni tashkil qilgan [3].

2025-yil yakuniga kelib esa muammoli kreditlar ko‘rsatkichi nisbatan pasaygan. Xususan, 2025-yil 1-dekabr holatida jami kreditlar 595 309 mlrd so‘m, NPL hajmi 20 545 mlrd so‘m va NPL ulushi 3,5 foizni tashkil etgan [4]. Bu holat muammoli kreditlarni boshqarish bo‘yicha bank tizimida muayyan ijobiy siljish mavjudligini ko‘rsatadi, biroq kredit portfelining mutlaq hajmi kengayib borayotgan sharoitda kredit sifatini doimiy monitoring qilish zaruratini saqlab qoladi.

Shu nuqtayi nazardan, muammoli kreditlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalasini aholining moliyaviy huquqlarini ta’minlash bilan uyg‘unlashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi banklarda muammoli kreditlarni yuzaga kelishining oldini olish, ularni erta aniqlash va restrukturizatsiya qilish orqali qarz oluvchilarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qiluvchi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Muammoli kreditlar mavzusi xalqaro banklar faoliyati tadqiqotlarida uzoq yillardan buyon kredit portfeli sifati, bank samaradorligi va moliyaviy barqarorlik bilan bog‘liq holda o‘rganib kelinmoqda.

Allen N. Berger va Robert DeYoungning “Problem Loans and Cost Efficiency in Commercial Banks” nomli tadqiqotida muammoli kreditlar bilan banklarning xarajatlar samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik empirik jihatdan o‘rganilgan. Mualliflar Granger sababiylik yondashuvidan foydalanib, muammoli kreditlar banklarning xarajatlar samaradorligining pasayishidan oldin yuzaga kelishi, shuningdek, xarajatlar samaradorligidagi o‘zgarishlar keyinchalik muammoli kreditlar dinamikasiga ta’sir qilishi mumkinligini ko‘rsatganlar [5]. Ularning xulosasiga ko‘ra, bank boshqaruvining sifati kredit portfeli sifatini belgilovchi muhim omillardan biri bo‘lishi mumkin.

Dimitrios P. Louzis, Angelos T. Vouldis va Vasilios L. Metaxas “Macroeconomic and bank-specific determinants of non-performing loans in Greece: A comparative study of mortgage, business and consumer loan portfolios” maqolasida muammoli kreditlarning makroiqtisodiy va bankka xos determinantlarini tadqiq qilgan. Mualliflar dinamik panel ma’lumotlaridan foydalanib, iste’mol, biznes va ipoteka kreditlari bo‘yicha NPL shakllanishida YAIM, ishsizlik, foiz stavkalari, davlat qarzi hamda boshqaruv sifati kabi omillarning ahamiyatini ko‘rsatganlar [6]. Ushbu tadqiqot muammoli kreditlarni faqat qarz oluvchining individual moliyaviy muammosi sifatida emas, balki bank faoliyati va makroiqtisodiy muhit bilan bog‘liq kompleks hodisa sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Jahon bankining “Good Practices for Financial Consumer Protection, 2017 Edition” nashrida esa moliyaviy iste’molchilar huquqlarini himoya qilishning institutsional va amaliy mexanizmlari keng yoritilgan. Mazkur manbada kredit mahsulotlari bo‘yicha huquqiy va nazorat mexanizmlari, axborotning shaffofligi, kredit shartlari haqida iste’molchiga yetarli ma’lumot berish, mas’uliyatli xatti-harakat va nizolarni hal qilish kabi yo‘nalishlar muhim deb qaraladi [1]. Ushbu yondashuv muammoli kreditlarni boshqarishda qarzdorlikni undirishdan tashqari, kredit oluvchining manfaatlarini himoya qiluvchi mexanizmlarni ham shakllantirish zarurligini asoslaydi.

Yevropa Banklar Tashkilotining “Guidelines on management of non-performing and forborne exposures” hujjatida muammoli va qayta tuzilgan kreditlarni boshqarish bo‘yicha kompleks yondashuv taklif qilingan. Unda banklar uchun NPElarni kamaytirish strategiyasi, boshqaruv va operatsion jarayonlar, ichki nazorat, monitoring hamda erta ogohlantirish mexanizmlarini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor berilgan [7]. EBA mazkur yondashuvni qarz oluvchilar kredit hayotiy siklining barcha bosqichlarida adolatli munosabatda bo‘lishi bilan ham bog‘laydi.

Basel qo‘mitasining problem assets bo‘yicha konsolidatsiyalashgan ko‘rsatmalarida ham muammoli aktivlar va kutilayotgan kredit yo‘qotishlarini boshqarish prudensial nazoratning muhim qismi sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv muammoli aktivlarni faqat ular shakllangandan keyin boshqarish emas, balki ularni aniqlash,

tasniflash, monitoring qilish va tegishli zaxiralarni shakllantirish orqali kredit riskini oldindan boshqarishga urg‘u beradi [8].

Yuqoridagi tadqiqot va institutsional yondashuvlarni umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, muammoli kreditlarni boshqarish uchta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishni qamrab olishi lozim: birinchidan, kredit risklarini dastlabki bosqichda aniqlash; ikkinchidan, qarzdorlik muammosi yuzaga kelgan taqdirda restrukturizatsiya va individual ishlash mexanizmlarini qo‘llash; uchinchidan, qarz oluvchining moliyaviy manfaatlari va huquqlarini himoya qilish. Aynan shu uch yo‘nalishning integratsiyasi bankning moliyaviy barqarorligi bilan aholining moliyaviy huquqlarini ta’minlash o‘rtasidagi muvozanatni shakllantiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda muammoli kreditlarning shakllanishi va boshqarilish jarayonlarini tizimli tahlil qilish, qiyosiy tahlil va statistik guruhlash usullaridan foydalanildi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklaridagi NPL bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlari asosida kredit portfeli, muammoli kreditlar hajmi va NPL ulushining dinamikasi baholandi. Xorijiy ilmiy tadqiqotlar va xalqaro moliyaviy institutlarning tavsiyalari asosida muammoli kreditlarni boshqarishning institutsional mexanizmlari qiyosiy o‘rganildi. Tadqiqot natijalari asosida banklarning erta ogohlantirish tizimi, restrukturizatsiya, individual mijozlar bilan ishlash va raqamli monitoring mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda tijorat banklari kredit portfelining o‘sishi iqtisodiyotda bank moliyalashtirishining kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Biroq kredit portfeli hajmining o‘sishi avtomatik ravishda kredit sifati yaxshilanganligini anglatmaydi. Shu sababli kreditlarning umumiy hajmi bilan bir qatorda, muammoli kreditlarning mutlaq qiymati va ularning jami kreditlardagi ulushi ham muntazam tahlil qilinishi lozim.

Quyidagi jadvalda 2025-yil boshidan 2026-yil iyunigacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston tijorat banklari kredit portfeli va NPL ko‘rsatkichlarining ayrim davrlardagi holati keltirilgan.

1-jadval

O‘zbekiston tijorat banklarida kreditlar va muammoli kreditlar dinamikasi

Davr	Jami kreditlar, mlrd so‘m	NPL, mlrd so‘m	NPL ulushi
2025-yil 1-yanvar	533 121	21 185	4,0%
2025-yil 1-mart	540 022	24 348	4,5%
2025-yil 1-may	565 568	23 650	4,2%
2025-yil 1-iyun	567 685	23 520	4,1%
2025-yil 1-iyul	575 245	21 870	3,8%
2025-yil 1-sentabr	581 057	21 802	3,8%
2025-yil 1-oktabr	582 211	21 261	3,7%
2025-yil 1-dekabr	595 309	20 545	3,5%
2026-yil 1-iyun	635 978	23 609	3,7%

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2025-yil 1-yanvaridan 1-martigacha NPL hajmi 21 185 mlrd so‘mdan 24 348 mlrd so‘mgacha oshgan va uning jami kreditlardagi ulushi 4,0 foizdan 4,5 foizgacha ko‘tarilgan. Bu davrda kredit portfeli ham o‘sgan bo‘lsa-da, muammoli kreditlarning o‘sish sur’ati kredit portfeli kengayishidan yuqori bo‘lgan.

2025-yilning keyingi oylarida esa NPL ko‘rsatkichida pasayish kuzatilgan. Jumladan, 1-may holatidagi 23 650 mlrd so‘mlik NPL 1-iyulga kelib 21 870 mlrd so‘mga tushgan va NPL ulushi 3,8 foizni tashkil qilgan. Yil oxirida ushbu ko‘rsatkich 20 545 mlrd so‘mga, ulushi esa 3,5 foizga kamaygan [4].

Biroq 2026-yil 1-iyun holatidagi ma’lumotlar muhim jihatni ko‘rsatadi: kredit portfeli 635 978 mlrd so‘mgacha oshgan, NPL hajmi esa 23 609 mlrd so‘mni tashkil qilgan. NPL ulushi 3,7 foiz bo‘lib, 2025-yil dekabridagi 3,5 foizlik ko‘rsatkichdan biroz yuqori bo‘lgan [9]. Demak, NPL ulushining nisbatan past darajada saqlanib qolishi ijobiy holat bo‘lsada, kredit portfelining tez kengayishi sharoitida muammoli kreditlarning mutlaq hajmi ustidan nazoratni kuchaytirish talab etiladi.

Muammoli kreditlarni boshqarishda eng muhim masalalardan biri — muammoni kredit to‘lovlari kechikib, NPL maqomiga yetgandan keyin emas, balki undan oldin aniqlashdir. Shu sababli tijorat banklarida “erta ogohlantirish tizimi”ni

takomillashtirish maqsadga muvofiq. Bunda qarz oluvchining daromadlari dinamikasi, hisobvaraqlardagi pul oqimlari, to‘lov intizomi, mavjud kredit majburiyatlari, kredit yuklamasi va boshqa moliyaviy ko‘rsatkichlar kompleks baholanishi kerak.

Mazkur mexanizmni shartli ravishda quyidagi ketma-ketlikda tashkil etish mumkin:

Kredit ajratish → doimiy monitoring → risk indikatorlarini aniqlash → erta ogohlantirish → individual tahlil → restrukturizatsiya yoki boshqa yechim → monitoring.

Bu yondashuvning afzalligi shundaki, bank qarzdorlikni faqat undirish obektiga aylantirmaydi, balki vaqtinchalik moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan mijozning to‘lov qobiliyatini tiklashga ham harakat qiladi. Natijada bank uchun kredit yo‘qotishlari kamayishi, мижоз учун эса кредит tarixining keskin yomonlashuvi va ortiqcha moliyaviy yukning oldini olish imkoniyati yuzaga keladi.

2-jadval

Muammoli kreditlarni boshqarish va aholining moliyaviy huquqlarini ta’minlash mexanizmlari

Muammo	An’anaviy yondashuv	Takomillashtirilgan mexanizm	Kutiladigan natija
To‘lovlarning kechikishi	Qarzdorlik yuzaga kelgandan keyin choralar	Erta ogohlantirish tizimi	NPL shakllanishining oldini olish
Qarz oluvchining daromadi kamayishi	Umumiy undirish mexanizmi	Individual restrukturizatsiya	Mijozning to‘lov qobiliyatini tiklash
Kredit shartlari bo‘yicha tushunmovchilik	Standart axborot berish	Tushunarli va to‘liq axborot	Moliyaviy huquqlarni ta’minlash
Yuqori kredit yuklamasi	Faqat mavjud qarzni baholash	Umumiy qarz yuklamasini monitoring qilish	Haddan tashqari qarzdorlikni kamaytirish
Kredit riski	Davriy nazorat	Raqamli real-time monitoring	Riskni tezkor aniqlash
Muammoli kreditni undirish	Faqat undirishga yo‘naltirilgan yondashuv	Restrukturizatsiya + undirishning differensial modeli	Bank va mijoz manfaatlari muvozanati
Kredit tarixi yomonlashuvi	Kechikishdan keyingi choralar	Erta maslahat va qayta rejalashtirish	Moliyaviy barqarorlikni saqlash

Jadvaldan ko‘rinadiki, aholining moliyaviy huquqlarini ta’minlash bankning kredit riskini kamaytirish maqsadiga zid emas. Aksincha, qarz oluvchining real moliyaviy imkoniyatlarini hisobga oluvchi mexanizmlar bankning kredit portfeli sifatini ham yaxshilashi mumkin.

Bunda restrukturizatsiya alohida ahamiyatga ega. Restrukturizatsiya kredit shartlarini qarz oluvchining vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklariga moslashtirish vositasi sifatida qo‘llanishi mumkin. Masalan, to‘lov muddatini uzaytirish, to‘lov jadvalini qayta ko‘rib chiqish, asosiy qarzni to‘lashni ma’lum muddatga kechiktirish yoki qarzdorning pul oqimlariga moslashtirilgan to‘lov jadvalini shakllantirish kabi choralar qo‘llanilishi mumkin. Biroq restrukturizatsiya muammoli kreditni sun’iy ravishda yashirish vositasiga aylanmasligi kerak. Shu sababli qayta tuzilgan kreditlar bo‘yicha alohida monitoring va sifat nazorati zarur.

EBAning muammoli va qayta tuzilgan kreditlar bo‘yicha ko‘rsatmalarida ham NPElarni boshqarish strategiyasi, boshqaruv tizimi, operatsion jarayonlar, ichki nazorat va monitoringning o‘zaro bog‘liq holda tashkil etilishi nazarda tutiladi [7].

Aholining moliyaviy huquqlarini ta’minlash nuqtayi nazaridan banklar kredit shartnomalarining murakkabligi va mijozlarning moliyaviy savodxonligi darajasidagi farqlarni ham hisobga olishi lozim. Kredit bo‘yicha foiz stavkasi, umumiy qaytariladigan summa, kechiktirilgan to‘lov oqibatlari, jarima va boshqa to‘lovlar, kreditni muddatidan oldin so‘ndirish imkoniyatlari kabi ma’lumotlar mijozga tushunarli shaklda yetkazilishi kerak. Jahon bankining moliyaviy iste’molchilarni himoya qilish bo‘yicha yondashuvi ham kredit mahsulotlarida shaffoflik va axborotning yetarliligini muhim tamoyil sifatida ko‘rsatadi [1].

Muammoli kreditlarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ham muhim istiqbolli yo‘nalishdir. Bankning kredit portfeli bo‘yicha katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali qarz oluvchilarning to‘lov intizomidagi o‘zgarishlarni tezkor aniqlash mumkin. Masalan, mijozning daromad oqimi pasayishi, boshqa kreditlar bo‘yicha kechikishlarning paydo bo‘lishi yoki hisobvaraqdagi pul aylanishining keskin qisqarishi riskning dastlabki signallari sifatida ishlatilishi mumkin.

Shu asosda banklarda muammoli kreditlarni boshqarishning takomillashtirilgan modelini quyidagi besh bosqich asosida shakllantirish taklif etiladi:

Profilaktik bosqich — kredit berishdan oldin qarz oluvchining real to‘lov qobiliyatini baholash;

Monitoring bosqichi — kredit ajratilgandan keyin mijozning moliyaviy holatini muntazam kuzatish;

Erta ogohlantirish bosqichi — NPLga aylanish ehtimoli yuqori bo‘lgan kreditlarni avtomatik aniqlash;

Tiklash bosqichi — individual restrukturizatsiya va qarz oluvchi bilan muzokara olib borish;

Yakuniy undirish bosqichi — iqtisodiy jihatdan asoslangan holatlarda undirish va garov bilan bog‘liq choralarni qo‘llash.

Mazkur modelning asosiy farqi muammoli kredit bilan ishlash jarayonini faqat “undirish” jarayoni sifatida emas, balki “aniqlash — oldini olish — tiklash — undirish” uzluksiz tizimi sifatida ko‘rishdan iborat. Bu yondashuv bank manfaatlari va qarz oluvchining iqtisodiy manfaatlari o‘rtasida muvozanat yaratishga xizmat qiladi.

Berger va DeYoung tomonidan olib borilgan tadqiqotda muammoli kreditlar va bank samaradorligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ko‘rsatilgani ham bankning kredit sifati ustidan doimiy nazorat olib borishi zarurligini tasdiqlaydi [5]. Louzis, Vouldis va Metaxas tadqiqotlari esa NPL dinamikasida makroiqtisodiy omillar bilan bir qatorda bank boshqaruvi sifatining ham ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi [6].

Shunday qilib, aholining moliyaviy huquqlarini ta’minlash va bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash bir-biriga qarama-qarshi maqsadlar emas. Aksincha, kredit shartlarining shaffofligi, mas’uliyatli kreditlash, erta ogohlantirish, individual restrukturizatsiya va raqamli monitoring mexanizmlarining uyg‘unligi har ikki tomon manfaatlarini himoya qiluvchi samarali kredit boshqaruvi tizimini shakllantiradi.

XULOSA

Banklarda muammoli kreditlarni boshqarish masalasi zamonaviy moliyaviy tizimda faqat kredit risklarini kamaytirish bilan cheklanmaydi. Ushbu jarayon aholining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, qarz oluvchilarning iqtisodiy manfaatlari va moliyaviy huquqlarini himoya qilish bilan bevosita bog‘liqdir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tijorat banklarida NPL ulushi 2025-yil davomida 4,5 foizgacha ko‘tarilgan bo‘lsa, yil oxiriga kelib 3,5 foizgacha pasaygan. 2026-yil 1-iyun holatida esa kredit portfeli 635 978 mlrd so‘mga, NPL hajmi 23 609 mlrd so‘mga va NPL ulushi 3,7 foizga yetgan. Bu ko‘rsatkichlar kredit portfeli kengayishi sharoitida muammoli kreditlarning mutlaq hajmini nazorat qilish masalasi dolzarbligicha qolayotganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, banklarda muammoli kreditlarni boshqarishning samarali modeli kredit ajratishdan oldingi baholash, kreditdan keyingi monitoring, erta ogohlantirish, individual restrukturizatsiya va zarur hollarda undirish mexanizmlarining yagona tizimda ishlashini nazarda tutishi kerak.

Aholining moliyaviy huquqlarini ta’minlash uchun kredit shartlari va qarzdorlik oqibatlari to‘g‘risidagi axborotning shaffofligini oshirish, moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan mijozlar bilan individual ishlash, restrukturizatsiya mexanizmlarini rivojlantirish va nizolarni hal qilishning samarali kanallarini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida kredit portfelini real vaqt rejimida monitoring qilish va erta ogohlantirish indikatorlarini joriy etish banklarga muammoli kreditlarni NPL maqomiga o‘tishidan oldin aniqlash imkonini beradi. Natijada banklarning kredit portfeli sifati yaxshilanadi, qarz oluvchilarning ortiqcha moliyaviy yuklamaga tushib qolish ehtimoli kamayadi va bank tizimiga bo‘lgan ishonch mustahkamlanadi.

Umuman olganda, muammoli kreditlarni boshqarishning zamonaviy konsepsiyasi “muammoli qarzni undirish”dan “kredit riskini oldindan aniqlash va qarz oluvchining to‘lov qobiliyatini tiklash” modeliga bosqichma-bosqich o‘tishni talab qiladi. Bunday yondashuv banklarning moliyaviy barqarorligi bilan aholining iqtisodiy manfaatlarini bir vaqtning o‘zida ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLARFOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Bank Group. Good Practices for Financial Consumer Protection, 2017 Edition. Washington, D.C.: World Bank, 2017. 190 p.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risida 2025-yil 1-yanvar holatiga ma’lumot. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risida 2025-yil 1-iyun holatiga ma’lumot. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risida 2025-yil 1-dekabr holatiga ma’lumot. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025.
5. Berger A.N., DeYoung R. Problem Loans and Cost Efficiency in Commercial Banks. Journal of Banking & Finance. Amsterdam: Elsevier, 1997. Vol. 21, No. 6. P. 849–870.
6. Louzis D.P., Vouldis A.T., Metaxas V.L. Macroeconomic and Bank-Specific Determinants of Non-Performing Loans in Greece: A Comparative Study of Mortgage, Business and Consumer Loan Portfolios. Journal of Banking

& Finance. Amsterdam: Elsevier, 2012. Vol. 36, No. 4. P. 1012–1027.
7. European Banking Authority. Guidelines on Management of Non-performing and Forborne Exposures. EBA/GL/2018/06. Paris: European Banking Authority, 2018. 108 p.
8. Basel Committee on Banking Supervision. Basel Consolidated Guidelines: Problem Assets and Provisions. Basel: Bank for International Settlements, 2026.
9. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risida 2026-yil 1-iyun holatiga ma’lumot. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026.